

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 6 733,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1 733,2 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,5 % ga ko'paygan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,1 % ni tashkil etdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-martiga nisbatan, % da
	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	
<b>I.YaHM</b>	<b>5 712,8</b>	<b>6 733,5</b>	<b>103,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 492,3	6 543,6	103,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	220,5	189,9	104,4
<b>II.Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>5 492,3</b>	<b>6 543,6</b>	<b>103,5</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 618,5	1 975,7	102,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 358,3	1 512,8	104,3
sanoat	1 048,5	1 135,4	103,1
qurilish	309,8	377,4	108,2
Xizmatlar	2 515,5	3 055,1	103,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	528,5	611,2	103,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	512,0	585,2	104,6
boshqa xizmat tarmoqlari	1 475,0	1 858,7	103,9

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 102,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 30,2 %), sanoat – 103,1 %, (17,4 %), qurilish – 108,2 % (5,8 %) va xizmatlar sohasi 103,9 % (46,6 %) ni tashkil etdi.

**2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHMning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylar 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 0,7 % punktga ko'paydi va hisobot davrida 30,2 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMdagi ulushi 1,5 % punktga kamaydi va hisobot davrida 23,2 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi esa 46,6 % ni tashkil etib, 2019 yilning mos davri (45,8 %) bilan taqqoslaganda 0,8 % punktga ko'paydi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

**2019-yil yanvar-mart**



**2020-yil yanvar-mart**




- Mahsulotlarga soʻf soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 9,3 % (2019 yilning yanvar-mart oylarida – 9,6 %) ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa 8,9 % (9,3 %) ni, boshqa xizmat tarmoqlari 28,4 % (26,9 %) ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari